



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 13-may, shanba,
57 (23.778)-son

**KUN
HIKMATI**

Ayrimlar farzandining o'qishi, ilm olishini ta'minlash o'rniga chala kasbi bilan ishga qo'yishni ma'qul ko'ryapti. Yomoni, bunga bolalar ham ko'nikyapti

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

Samarqand viloyati hokimining QARORI

Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq sakson oltinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan QAROR QILAMAN:

- Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq sakson oltinchi sessiyasi 2023-yil 17-may kuni chaqirilsin.
- Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-43-sonli qarorining ijrosi yuzasidan viloyat hokimining o'rinbosari A.Shukurovning hisoboti;
 - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) mintaqaviy vakili D.Xusanovning 2022-yilda amalga oshirilgan ishlari to'g'risidagi axboroti;
 - xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi va Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 2021-2022-yillardagi faoliyati yuzasidan jamoat fondi direktori D.Malikovning hisoboti;
 - viloyatda 2023-yilning I choragida davlat va mahalliy budjet daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining ijrosi to'g'risida viloyat moliya boshqarmasi boshlig'i B.Mirzayevning hisoboti;
 - viloyat mahalliy budjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida;
 - xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 4-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-408-sonli qaroriga muvofiq, mahalla infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida amalga oshiriladigan ishlar manzilli ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-75-215-7-0-K/22-sonli qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida;
 - viloyatda 2024-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritiladigan loyihalarning taqdimoti to'g'risida;
 - jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishiga ruxsat berish to'g'risida;
 - jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha taqdimot materiallarini ko'rib chiqish va mulkdorlar bilan ochiq muhokama o'tkazishiga ruxsat berish to'g'risida;
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi okrug komissiyasi a'zolariga nomzodlarni ko'rib chiqish to'g'risida.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV

2023-yil 10-may



Samarqand - YTTB "YASHIL SHAHARLAR" dasturi a'zosi

16-18-may kunlari Samarqandda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) boshqaruvchilar kengashining navbatdagi yillik yig'ilihi o'tkaziladi. Ayni paytda yurtimizda mazkur nufuzli tadbirga qizg'in hozirlik ko'rilmoqda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etib kelayotgan xalqaro moliya muassasalaridan biri hisoblanadi.

2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, YTTB sarmoyalari hajmi bo'yicha O'zbekiston mintaqada peshqadam bo'lib turibdi. Bankning mamlakatimizdagi loyihalari portfeli 3 milliard yevrodan oshadi, unda xususiy sektorga investitsiyalar ulushi 50 foizgacha ko'paygan.

Jumladan, yurtimizda aholi suv ta'minoti tizimi va markazlashtirilgan issiqlik ta'minotini yaxshilash, elektr energiyasini sohasini modernizatsiya qilish, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishga oid loyihalarda mazkur moliya muassasasi faol ishtirok etmoqda.

Samarqand Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining "Yashil shaharlar" dasturiga qo'shilgan yurtimizdagi ilk shahar hisoblanadi. Mazkur dastur bo'yicha Samarqand shahar jamoat transporti uchun 350 ta elektrobus xarid qilish hamda ular bilan bog'liq infratuzilmani yaratish bo'yicha loyiha amalga oshirilmoqda.

Umumiy qiymati 155 million dollar bo'lgan mazkur loyiha 2022-2025-yillarga mo'ljallangan va ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinci bosqichda Samarqandga 2023-yil may oyiga qadar 6 ta hamda yil yakuniga qadar 94 ta 10,5 metrlik elektrobuslar xarid qilish hamda ularni saqlash uchun park tashkil etish belgilangan.

Samarqand viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, loyihani amalga oshirish uchun 2021-yil 7-iyunda investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, YTTB, Samarqand viloyati va Samarqand

shahar hokimliklari o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolangan.

Loyiha operatori sifatida viloyat transport boshqarmasi muassisligida "Samarqand viloyati transport boshqarmasi muassisligidagi Samarqand yo'lovchitrans" davlat korxonasi qayta tashkil etildi. Elektrobuslarni joylash-tirish uchun umumiy maydoni 3,82 gektar bo'lgan avtotransport parki tanlangan. Shuningdek, o'tgan yil 100 ta elektrobus hamda ularni quvvatlantirish moslamalarini xarid qilish bo'yicha ochiq xalqaro tender e'lon qilindi. Xarid komissiyasining 2022-yil dekabr oyidagi qarori bilan ikki bosqichli tender savdolari yakunlanib, 2023-yil 10-fevral kuni g'olib tashkilot - "Yutong Bus Co., Ltd" (Xitoy) bilan 29,7 million dollarga shartnoma imzolangan. Ushbu shartnoma asosida yaqinda Samarqand shahriga dastlabki 6 ta zamonaviy elektrobus keltirildi. Yil yakunigacha qolgan 94 ta elektrobusni keltirish hamda mavjud transport parki kapital qurilishini yakunlash ko'zda tutilgan.

Loyihaning ikkinchi bosqichida esa 2024-yilning birinchi choragida 8,5 metrli 43 ta, yil yakuniga qadar esa yana 207 ta elektrobus xarid qilish hamda yangi depo qurilishi belgilangan.

Bundan tashqari, 2024-yilda Samarqand shahrining infratuzilmasi va atrof-muhit bilan bog'liq muammolarini bartaraf etish bo'yicha "Yashil shahar harakatlar rejasini" ishlab chiqilishi uchun xalqaro konsultantlar guruhi jalb etilgan.

Mazkur loyihaning amalga oshirilishi keyingi paytda yirik turizm va xalqaro forumlar markaziga aylanib borayotgan Samarqand shahrining infratuzilmasini yanada yaxshilash va zamon talablariga moslashtirish, aholi va sayyohlarga qulaylik yaratishga xizmat qilishi shubhasiz.

16-18-may kunlari Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruv kengashining yillik yig'ilishi o'tkazilishi munosabati bilan Samarqand shahrining ayrim ko'chalarida transport vositalarining harakatlanishi vaqti-vaqti bilan cheklanadi.

Harakat qatnovi cheklangan ko'chalarda tez tibbiy yordam va favqulodda vaziyatlar bo'linmalari transport vositalariga istisno tariqasida harakatlanish uchun ruxsat beriladi.

PILLA HOSILINI YIG'ISH BOSHLANDI



Paxtachi tumanidagi "Ziyovuddin Silk" pillachilik klaster korxonasida pilla hosilini qabul qilish tadbiri o'tkazildi.

Unda Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi raisi B.Sharipov, viloyat hokimi E.Turdimov ishtirok etdi.

Bundan 5-6 yil muqaddam respublikamiz bo'yicha 20 million dollarlik ipak mahsulotlari eksport qilingan bo'lsa, bugun mazkur ko'rsatkich birgina samarqandliklar ulushiga to'g'ri kelmoqda. Mavsumning 1-2-bosqichlarida viloyatda 57 ming 329 quti ipak qurti parvarishlanib, 3 ming 325 tonna pilla hosilini yetishtirish niyat qilingan. Tadbir ishtirokchilari korxonaning ishlab chiqarish quvvati, eksport mahsulotlari hamda pilla qabul qilish punktlarining shaylik holati bilan tanishdi. Kasanachilar tomonidan yetishtirilgan pillalar taroziga tortildi hamda shu joyning o'zida mehnat haqi to'lab berildi va ilg'or kasanachilarga esdalik sovg'alari topshirildi.



ILMLI AYOL - JAMIYAT KO'ZGUSI

Shubhasiz, olimlik rutbasiga erishish oson emas, uning bosqichma bosqich murakkab jarayonlaridan o'tish kishidan mehnat, bilim va izlanish talab etadi. Ammo shu zahmatli yo'lni bosib o'tib, o'zbekistonlik olimlarga deya qator xalqaro doiradagi nufuzli ilmiy anjumanlarda ishtirok etayotgan, o'z pozitsiyasini bildirayotgan ayollar soni oshib bormoqda.

Samarqandda "Ilmiy ayol - jamiyat ko'zgusi" shiori ostida "XXI asr ayoli" nomli festival aynan olimlarning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatish va ularning izdoshlarini ko'paytirish masalalariga bag'ishlandi. Respublikamizning barcha hududlaridan olimlar ishtirok etgan anjumanda Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva videoaloqa orqali tadbir qatnashchilariga murojaat etib, jamiyat rivojida ta'limning, ayniqsa, xotin-qizlarning ilm olishi ahamiyati, olimlarning sohada rolini oshirish masalalariga o'xtalib o'tdi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida tashkil etilgan anjuman davomida keyingi yillarda xotin-qizlarning ta'lim olishi uchun berilayotgan imtiyozlar haqida atroflicha so'z yuritildi.

2021-2022-o'quv yilida oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarining 47 foizini xotin-qizlar tashkil qilgan bo'lsa, 2022-2023-o'quv yilida bu ko'rsatkich 50 foizni tashkil etmoqda. Magistraturadagi xotin-qizlar soni esa bundan ikki yil avvalgi 51 foizdan 55,8 foizgacha o'sdi.

2022-yilda sohalar kesimida talaba-qizlar ulushi gumaniatar sohada 64,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minotda 47,9 foiz, xizmat ko'rsatish sohasida 34,2, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sohada 15,9 foizni, ishlab chiqarish-texnika sohasida 8,8 foiz, qishloq va suv xo'jaligida 13 foizni tashkil etdi. Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta'lim olayotgan 12300 nafar xotin-qizga to'lov-kontrakt mablag'larining 50 foizini qoplab berish uchun Davlat budjetidan 68,298 milliard so'm mablag' ajratildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari budjeti mablag'lari hisobidan 1431 nafar ota-onasi-

dan yoki ulardan biridan ayrilgan qizlarga, boquvchisini yo'qotgan yolg'iz ayollarga to'lov-kontrakt to'lab berildi.

Moliyaviy barqaror oliy ta'lim muassasalari tomonidan 1044 nafar talaba, shu jumladan, 396 nafar qizga budjetdan tashqari jamg'arma hisobidan to'lov-kontraktlari amalga oshirildi. 2021-yil 1-maydan boshlab yotoqxona bilan qamrab olinmagan, ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta'lim muassasalari talabalarining 60 foiziga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovlarning 50 foizi davlat budjeti hisobidan qoplab berilishi belgilandi.

Oliy Majlis Senati a'zolari Rustam Xolmurodov, Farmon Toshev, viloyat hokimi o'rinbosari Zebiniso Rahmonova, pedagogika fanlari doktori, professor Oynisa Musurmonova ayolning ta'lim olishi jamiyat uchun muhimligini misollar yordamida ta'kidlab o'tishdi.

Keyingi yillarda bizda 30 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar orasida ilmiy daraja olayotganlar soni ortyapti, - deydi Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat universiteti rektorining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Injayim Seytinazarova. - Bugun Qoraqalpog'istondagi 10 ta oliy ta'lim muassasasida xotin-qizlar orasida 40 nafarga yaqin fan doktori, 250 nafar fan nomzodi faoliyat olib boradi. Ta'lim olayotgan talabalarining 50 foizi xotin-qizlardir. Qizlarning oliy ta'lim tizimida tahsil olishga bo'lgan ishtiyoqi davlat tomonidan berilayotgan qator imtiyozlar tufayli ortib borayotir.

Anjumanda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan bir guruh olimlarga faxriy orloq topshirildi. Ta'lim tizimidagi yutuq va kamchiliklar, oiladagi muammolarning oldini olishda olimlarning yondashuvlari, qizlarning oliy ma'lumotli bo'lishi farzandiga bilim berishi uchun ham ahamiyatli ekanligi qayta-qayta ta'kidlandi.

Gulruh MO'MINOVA.

